TURKISTONLIK JADID OBIDJON MAHMUDNING TAShKILOTChILIK FAOLIYATI

Xasanov Asadullo Olimjon o‘g‘li – *tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori*
xasanovasadullo7@gmail.com
Turan International University

ОРГАНИЗАТОРСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ТУРКЕСТАНСКОГО ДЖАДИДА ОБИДЖОНА МАХМУДА

Хасанов Асадулло Олимжонович – *доктор философии по историческим наукам*
Turan International University

THE ORGANIZATIONAL ACTIVITIES OF OBIDJON MAHMUD, A JADID FROM TURKESTAN

Khasanov Asadullo Olimjonovich – *Doctor of Philosophy in Historical Sciences*
Turan International University

Tayanch so‘zlar: jadidlar, “Sadoyi Farg‘ona”, Qo‘qon, Turkiston muxtoriyati, Munavvarqori.

Rezyume. Maqolada turkistonlik jadid Obidjon Mahmudning tashkilotchilik faoliyati haqida ma’lumot beriladi. Obidjon Mahmud siymosi orqali jadidlarning ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlaridagi ishtiroki tahlil qilinib, Turkiston jadidchilik milliy harakatining mazmun-mohiyati va ko‘lami ochib beriladi. Jadidchilik milliy harakati o‘lkani qaramlikdan ozod qilish va yurtni taraqqiy ettirish maqsadi bilan yuzaga kelgani asoslanadi.

Ключевые слова: джадиды, «Садои Фергана», Коканд, Туркестанская автономия, Мунавваркари.

Резюме. В статье рассматривается организаторская деятельность туркестанского джадида Обиджона Махмуда. На примере личности Обиджона Махмуда анализируется участие джадидов в общественно-политических и культурных процессах, раскрываются сущность и масштабы национального джадидского движения Туркестана. Обосновывается положение о том, что национальное джадидское движение возникло с целью освобождения края от зависимости и обеспечения его развития.

Key words: jadids, “Sadoi Ferghana”, Kokand, Turkestan autonomy, Munavvarkari.

Summary. The article examines the organizational activities of Obidjon Mahmud, a Jadid intellectual from Turkestan. Through the figure of Obidjon Mahmud, the article analyzes the Jadids’ involvement in socio-political and cultural processes, revealing the nature and scope of the national Jadid movement in Turkestan. It substantiates the argument that the national Jadid movement emerged with the aim of liberating the region from subjugation and promoting its development.

Kirish. Millat erki va yurt ozodligi uchun kurashgan qahramonlar har zamon tarixning eng yorqin sahifalaridan joy olishlari shubhasiz. O‘zbekiston tarixida ko‘plab shunday qahramonlar o‘tgan bo‘lsa-da, ular orasida Turkiston jadidlarining alohida o‘rni bor. Xususan, davlat va jamoat arbobi, milliy tadbirkor, noshir Obidjon Mahmudning ibratli hayot yo‘li orqali jadidlarning ijtimoiy-siyosiy faoliyatlari haqida ma’lum bir xulosalarga kelish mumkin.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili. Turkiston jadidchilik milliy harakatining yirik namoyondonlaridan biri Obidjon Mahmud shaxsi va faoliyati haqida hozirga qadar milliy va xorijiy tadqiqotlarda ma’lum bir izlanishlar e’lon qilingan [5, 12, 14, 15, 16]. Ularda uning hayot yo‘li, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’rifiy faoliyati masalalari tahlil qilinib, jadidchilik milliy harakati paydo bo‘lishi, jadid matbuoti, jadidlarning iqtisodiy qarashlari, Turkiston muxtoriyati va boshqa shu kabi kontekslarda ma’lumotlar berib o‘tilgan. So‘nggi yillarda Obidjon Mahmudov faoliyatiga bag‘ishlab maxsus tadqiqot o‘tkazilgani esa bu boradagi tadqiqotlar ko‘lamli kengayib borayotganidan dalolat bermoqda [13]. Ayni vaqtda, Obidjon Mahmud hayot va faoliyati bilan bog‘liq barcha masalalar to‘liq o‘rganib bo‘lindi, deb hisoblash mumkin emas. Uning tashkilotchilik sohasidagi faoliyati, xususan, Turkiston taraqqiyparvarlar uyushmasini shakllantirishdagi o‘rni, mustamlakachilikka qarshi ma’rifiy-siyosiy kurashi, diplomatik faoliyati, milliy tashkilotlar tashkil etish va undagi ishtirok, sovet hukumatiga qarshi kurashdagi jasoratlari (*boshqa ta’bir bilan aytganda “chatoqliklari” – A.X.*) kabi masalalar hali to‘laqonli ochib o‘rganilgani yo‘q. Shu ma’noda ushbu maqolada yuqoridagi masalalar bo‘yicha umumiy qarashlar ilgari surilib tahlilga tortildi.

Muhokama va natijalar. Birinchidan, Obidjon Mahmudning tashkilotchilik faoliyati mustamlakachilik siyosatiga qarshi qaratilgan milliy ozodlik harakatlarini faol tarafdori, qo‘llab-quvvatlovchisi va himoya qiluvchisi bo‘lganida o‘z ifodasini topdi. Uning bu sohadagi qarashlarining shakllanishida Turkistondagi milliy ozodlik harakatlari, xususan, 1898-yilgi Andijon qo‘zg‘aloni, 1916-yilgi Turkiston ozodlik kurashlarining ta’siri yuqori bo‘lgani shubhasiz. Zero jadidlar har doim Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati va unga qarshi kurash masalalarini o‘zaro yig‘inlarda muhokama qilib umumiy harakat rejalarini hayotga tadbiq qilib borganlar. Obidjon Mahmud ana shunday yig‘inlarning faol ishtirokchisi sifatida tarixga kirgan. Bu haqida Abdulloh Rajab Boysunning quyidagi guvohliklari alohida e’tiborga molik: “1916-yil may oyida Samarqandda muftiy Mahmudxo‘ja uyida Toshkentdan Munavvarqori, Xivadan Pahlavon Niyoz, Buxorodan Usmon Xo‘ja, Jizzaxdan Komil qori, Qo‘qondan Obidjon Mahmud va boshqa vakillari ishtirokida o‘tkazilgan yig‘inda Chor hukumati matbuotda e’lon qilgan frontorti ishlariga aholini safarbar qilish qarori muhokama qilinib, unga qarshi quyidagi choralar belgilandi:

1) Turkistonda ishchi olish to‘g‘risidagi loyihani qonun sifatida qabul qilinishiga qarshi chora-tadbirlar ko‘rmoq;

2) Agar loyiha qonun sifatida qabul qilinsa, protest shaklida e’tiroz ko‘rsatmoq” [3:18].

Ikkinchidan, Obidjon Mahmud tashkilotchiligi XIX asr oxiridan Turkistonda shakllana boshlagan taraqqiyparvarlar uyushmalarini yagona g‘oya va maqsad asosida birlashtirish harakatlarida namoyon bo‘ladi. Uning “Dardimiz bir, kasalimiz ham bir, davo va darmonimiz ham birdur” [7:1], degan fikrlarida mustaqillikka intilish ruhi va buning atrofida birlashish lozimligi g‘oyasi aks etib turadi. Shuning uchun 1913-yildan Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo‘ja Behbudiylar bilan hamkorlikda Turkiston milliy harakatlarini muayyan bir shaklga solishga harakat qila boshladi. Faqat tajribasizlik va hujjatlarni mustamlaka hukumat qo‘liga tushishidan qo‘rquv dastur va nizomlarni yozishga imkon bermadi. Shu bilan birga 1914-yili Zaki Validiy bilan yozishmalarda muhokama qilingan quyidagi uch modda o‘sha vaqtda turkistonlik jadidlar uchun umumiy dastur vazifasini bajardi:

1. Butun yerli aholining huquq va soliqlarda ruslar bilan barobar bo‘lishi;

2. Turkiston xalqi yer bilan to‘liq ta’minlanmasdan turib ruslarni o‘lkaga ko‘chirmaslik;

3. Zamonaviy maorif targ‘iboti [8:355].

Yuqoridagi dastur asosida Obidjon Mahmud tomonidan ta’sis etilgan “Sadoyi Farg‘ona” gazetasi orqali Usmon Nuriy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Cho‘lpon, Tavallo, Xolid Said, Said Ahmad Vasliy, Ibrohim Davron, Abdullabek Musabek o‘g‘li, Ashurali Zohiriy singari butunturkiston jadidlari yagona g‘oya va fikr asosida birlashgan edilar.

Uchinchidan, Obidjon Mahmud mustamlakachi hukumati bilan murosaga borib, turli tazyiq va ta’qiblarga bo‘yin egmagan holda Turkiston xalqi manfaatlarini ko‘zlab ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat olib borgan etakchi tashkilotchilardan biridir. Xususan, uning Qo‘qondagi jadid maktablari faoliyatini qo‘llab-quvvatlagani, milliy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida Qo‘qon birja jamiyatini ta’sis etgani [13:21], “Jome ul-axbor” (keyinchalik “Sadoyi Farg‘ona”) gazetasini nashr etishga ruxsat olgani [6], “Mador”, keyinchalik “G‘ayrat” kutubxona va shirkat jamiyatlarini tuzishdagi tashabbuslari uning bu boradagi harakatlari keng ko‘lamli bo‘lganidan dalolat berib turadi. 1911-yili Qo‘qon shahrida jadid maktabi ochib, unga Po‘latjon Qayumni mudir qilib belgilaganida esa maktablar vositasida jadidchilik harakatini uyushtirishga harakat qilgani aks etadi [11:88].

To‘rtinchidan, Obidjon Mahmudning muxtoriyatchilik g‘oyasi nazariyotchisi va amaliyotchilaridan biri deb hisoblash mumkin. Ma’lumki, Turkiston muxtoriyat g‘oyasini 1917-yilga kelibgina hayotga tadbiq etish imkoniyati yuzaga keldi. Aslida esa millat xodimlarining muxtoriyatchilik harakatlari 1905-1906-yillarga borib taqaladi. Bu masalada ko‘plab tadqiqotlar Mahmudxo‘ja Behbudiyning III Davlat Dumasiga tayyorlagan loyihasiga asosiy e’tiborni qaratadilar. Lekin, 1906-yili boshidayoq qo‘qonlik taraqqiyparvarlar ittifoq asosida mustamlaka hukumatiga ichki mustaqil boshqaruvga oid talabnoma tayyorlagan edilar. Diniy erkinlik va tenglik g‘oyasini ifodalagan 10 moddalik ushbu talabnoma I Davlat Duma muhokamasiga qo‘yilishi nazarda tutilgan. Talabnomada Turkistondagi musulmon aholi uchun Ulamo majlisi tuzishga ruxsat so‘ralib, uning nizomi bayon qilingan. Unga ko‘ra, tuziladigan muassasani “Ulamo majlisi” deb yuritish, unga rais boshchilik qilishi hamda xayriya va yordam, kotiblik, taftish kabi ishlar bilan shug‘ullanuvchi 6 o‘rinbosar faoliyat yuritishi ko‘rsatilgan. Majlis vakolati 5 yil etib belgilangan. Majlis qarorlari ijrosi uchun Nazorat majlisi tuzilishi ko‘zda tutilgan. Uning vazifasi qilib mustamlakachi hukumatning o‘lkadagi siyosatiga qarshi bo‘lgan vaqf tizimini qayta nazorat ostiga olish, madrasa va masjidlarga imtihon qilib lavozimga qo‘yish tartibini tiklash, qozilar faoliyatining mustaqilligi va tajribalilarini 3 yildan ko‘proqqa saylash kabilar belgilangan [9].

Binobarin yuqoridagi muhim hujjatni tayyorlash jarayonida Obidjon Mahmud kabi taraqqiyparvarlarning ishtirok etmasligi mumkin emas edi. Zaki Validiyning 1917-yilgi Umumturkiston musulmonlari qurultoylaridagi ishtirok va unda ko‘tarilgan masalalarda bildirgan quyidagi fikrlari buni tasdiqlab turadi: “1917-yil aprel qurultoyiga a’zolardan navbatma navbat raislik qildik. Davlat boshqaruvi va idora tashkil qilish masalalarida hisobot beruvchi bo‘lganimdan federatsiya haqidagi g‘oyalarni tarixiy dalillar bilan atroflicha isbotladim. … Bunday vaziyatda Munavvarqori, Ubaydulla Xo‘jayev kabi ziyolilar boshida federatsiya g‘oyasiga qo‘shilmadilar, buni xom-xayol deb tushundilar. Bu masalada faqat Mahmudxo‘ja Behbudiy va qo‘qonlik Obidjon Mahmudovning hech ikkilanmasdan mening tarafimda bo‘lganlari bilan (u masala) ijobiy bir tarzda hal bo‘ldi” [10:143].

Beshinchidan, Obidjon Mahmudni nafaqat Turkiston muxtoriyati tuzilishidan tortib uni mustahkam saqlab qolish yo‘lida jonbozlik ko‘rsatgan tashkilotchi vazir, balki mohir diplomat sifatida ham baholash lozim. Uning Turkiston hukumatidagi faoliyati S. A’zamxo‘jayev, Q. Rajabov kabi olimlarning tadqiqotlarida keng ochib berilgan bo‘lsa-da [14, 15], diplomatlik faoliyati haliga qadar o‘rganilgan emas. Muftiy Sadriddinxon xotiralarida yozishicha, 1917-yil noyabrda Turkiston muxtoriyati tuzilgach, harbiy jihatdan hokimiyatni mustahkamlash maqsadida Farg‘ona ulamo va mashoyixlari tarafidan yozilgan iltimosnoma bilan andijonlik mudarris Najmiddin Maxdum va hukumat tarafidan Obidjon Mahmud o‘g‘li Buxoro amiri huzuriga yuborilgan. Lekin, Sovet hukumati bilan ziddiyatga borib qolmaslik uchun amir iltimosni rad qilgan [3:29]. Shundan keyin Obidjon Mahmud va Muhammad Amin Afandizoda Usmonli davlatidan yordam olish uchun Bokuga yuboriladilar. Obidjon Mahmud Bokudagi “Ittihod va taraqqiy” jamiyati rahbari bilan aloqa bog‘lab 20 ga yaqin turk zobitlarini o‘zi bilan olib ketishga rozilik oladi. Lekin, Samarqandga etib kelganlarida Turkiston muxtoriyati qonga botirilganini o‘rganadi [4:114].

Obidjon Mahmudni diplomatik faoliyati 1921-yili Turkkomissiya vakillari Eliava va Orjonikidze bilan norasmiy uchrashuv chog‘ida yana bir bor o‘z ifodasini topgan. Jarayonga bevosita guvoh bo‘lgan Salimxon Tillaxonov buni shunday tasvirlagan: “Shu o‘rtada so‘zlashib turib kulgi ila Obidjon “Bizning Turkistonga alohida milliy jumhuriyat huquqini berishlaringiz kerak”, dedi. Bunga Eliava kulib, “Bunday narsalar berilmaydi, olinadir”, deb javob berdi. Bunga qarshi Obidjon yana kulib, “Agar bermas ekansizlar, albatta olamiz”, deb butun so‘zlar yarim hazil va yarim jiddiy bo‘lib o‘tdi. Eng oxirda Obidjon Mahmudov, “Bo‘lmasa biz uchun nima kerak ekanini alohida yozuv ila topshiramiz”, dedi. Eliava va Orjonikidzelar ham “Juda yaxshi, yozuv ila topshiringiz”, deb yana kulishdilar. Shu yo‘l ila Obidjon Mahmudovning cha-

toqligi orqasida bir qancha so‘zlanmog‘i mumkin bo‘lmagan narsalar so‘zlandi” [1:138].

Shundan so‘ng tashkilot Turkiston hukumatidagi rasmiy vakillari orqali Moskvaga murojaat qilib amalda mustaqillikni ifodalovchi “avtonomiya” loyihasini topshirishga qaror qilgan. Loyiha asosini quyidagi talablar tashkil etishi belgilangan:

1) Turkkomissiyaning Turkiston boshqaruviga aralashuvini ta’qiqlash;

2) Turkistonga o‘z armiyasini tuzishga ruxsat berish;

3) Temir yo‘l nazoratini Turkiston hukumatiga topshirish;

4) Pochta-telegraf va telefon nazoratini Moskva aralashuvisiz Turkiston hukumatiga berish;

5) Sharq mamlakatlari bilan aloqalarni mustaqil hal qilish huquqini berish [2:21].

Oltinchidan, Obidjon Mahmud “Sho‘royi islom”, “Turk adam markaziyati”, “Ittihodi taraqqiy”, “Milliy ittihod” kabi milliy tashkilotlari etakchisi va faol a’zosi bo‘lib tarixda qoldi. Uning milliy tashkilotlardagi ishtiroki sovet hukumatida turli lavozimlarda faoliyat yuritish, istiqlolchilik harakatini qo‘llab-quvvatlash, turkistonlik yoshlarni xorijga o‘qishga yuborishda ko‘maklashish, turk asirlari bilan hamkorlik qilish va boshqa shu kabi yo‘nalishlarda kechdi. Birgina, “Milliy ittihod” tashkiloti misolida ko‘rilsa, u markaziy qo‘mita a’zosi, bir vaqtda Qo‘qon bo‘limi rahbari sifatida tashkilot safini kengaytirish, mablag‘ bilan ta’minlash, xorij bilan aloqa o‘rnatish, qo‘rboshilarga yordam ko‘rsatish, milliy mutaxassislar tayyorlash ishlarida alohida tashabbus ko‘rsatganini ko‘rish mumkin [1:159]. Usmonxo‘ja To‘xtaxo‘jayev e’tirofiga ko‘ra, “Ovro‘paga talaba yuborish masalasida ish ko‘rilgan vaqtda Obid chatoq 400 ta talabani yuborib, bularni ta’minotini ham topishni ustiga olgan” [1:521].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Obidjon Mahmudning qarashlari mustamlakachilikka qarshi milliy ozodlik harakatlari ta’sirida shakllanib bordi. Tashkilotchilik faoliyatining dastlabki bosqichida yangi usul maktablarini qo‘llab-quvvatlash, milliy matbuot ta’sis etish, ijtimoiy-iqtisodiy jamiyatlar tuzish orqali jadidchilik harakatini yagona dastur va g‘oya atrofida birlashtirishga asosiy e’tibor qaratildi. Turkiston muxtoriyatini tuzish jarayonlaridan tortib, uni saqlab qolish yo‘lida diplomatik faoliyat bilan jonbozlik ko‘rsatdi. Sovet hukumatiga qarshi milliy tashkilotlar etakchisi sifatida Turkiston mustaqilligi uchun faol kurash olib bordi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Davlat xavfsizlik xizmati arxivi. P-33391-ish materiallari.
2. O‘zbekiston Davlat xavfsizlik xizmati arxivi. P-22407-ish materiallari.
3. Abdullah Receb Baysun. Türkistan milli haraketleri. – İstanbul. 1943.
4. Ahat Andican. Cedidizm’den Bağımsızlığa Hariçte Türkistan Mücadelesi. – İstanbul Yemre yayınleri, 2003.
5. Alijonov M. Bolsheviklar jiddiy dushman sanagan “Obid Chatoq” kim edi? // https://oyina.uz/uz/article/3773 (29.04.2026)
6. Milliy maishat. / “Tarjimon” gazetasi, 1913-yil 24-aprel.
7. Mahmudov O. Maslak va maqsad. / “Sadoyi Farg‘ona” gazetasi, 1914-yil 3-aprel.
8. Togan Ahmet Zeki Velidi. Bugünkü Türkili (Türkistan) ve yakın tarihi. – İstanbul: 1981.
9. Xo‘qand shahridagi musulmoniya fuqarolarining majlislarida bo‘lgan maslahat va mashvaratlarining mazmuni. / “Taraqqiy” gazetasi, 1906-yil 10-yanvar.
10. Zeki Velidi Togan. Hatıralar. Türkistan ve diğer müslüman doğu türklerinin milli varlık ve kültür mücadeleleri. –İstanbul: TAN matbaası, 1969.
11. Жамолова Д. Обиджон Маҳмудов ва унинг “Садойи Фарғона” газетаси ҳақида. “Садойи Фарғона” газетасининг миллий матбуот шаклланиши ва жадидчилик ҳаракатидаги ўрни” мавзусидаги Республика илмий-амалий конференция материаллари. – Фарғона: 2024, 83-87-б.
12. Каримов Н. Фарғона жадидларининг сарвари. // “Водийнома” журнали, 1, 2016. 63-65-б.
13. Комилов Н. Туркистон жадидларидан Обиджон Маҳмудовнинг ҳаёти, ижтимоий-сиёсий, маданий фаолияти (1871-1936 й.й.). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Андижон, 2021.
14. Ражабов Қ. Туркистон мухторияти тарихи. ─ Тошкент: «Фан», 2023.
15. Аъзамхўжаев С. Туркистон мухторияти. Миллий давлатчилик қурилиш тажрибаси. – Тошкент: «Маънавият», 2000.
16. Қозақов Т. Фарғона водийсида жадидчилик ҳаракати. – Наманган: НамДУ, 2018.